

1D F 67/24

Maxsus aloqa xizmatlarini ko'rsatishga

SHARTNOMA № 349

Toshkent sh.

2022 y. "20" 01

O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi "Respublika maxsus aloqa bog'lamasi" davlat unitar korxonasi, bundan buyon "Bajaruvchi" deb atalgan holda, Ustaviga asoslanib faoliyat yurituvchi boshliq Mirnosirov Mirkomil Mirxaydarovich, bir tomon bo'lib va

Рамзап откагиеваси яго ғузукали ахедадиги  
(korxona,tashkilot,muassasa nomi)

nomidan guyerkop Lagrikob U.U.  
(familiyimi,familiyasi,ismi,ota ismi)

kelgusida "Buyurtmachi" deb atalgan holda, yerab muvofiq ish yurituvchi  
(ustav,qaror,ishonchnomma)

ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

### 1.SHARTNOMA PREDMETI.

1.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga tegishli bo'lgan yozma xat-xabarlar (paketlar), posilkalar va o'ramlarni (bundan keyin-jo'natmalar) "Buyurtmachi"ning binosida qabul qilish va ularni O'zbekiston Respublikasi hamda MDH mamlakatlaridagi (tuman ma'muriy markazlaridan quyida bo'limgan) adresatlarga yetkazib berish (topshirish) majburiyatini o'z zimmasiga oladi, "Buyurtmachi" esa "Bajaruvchi"ning ushbu xizmatlarini o'z vaqtida va to'liq to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

### 2.TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

2.1. "Bajaruvchi"ning majburiyatli:

haftaning har ханумеруб асабуга kunida  
(hafta kunlari)

jo'natmalarni "Buyurtmachi"ning binosida qabul qilish uchun avtomashina bilan feld'egerni yuborish; maxsus aloqani tashkil qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning talablari va me'yorlariga hamda mazkur Shartnomaning shartlariga muvofiq jo'natmalarni qabul qilish, ishslash ,tashish va topshirish;

"Buyurtmachi"ga maxsus aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlari va tartibi (jo'natmalarni o'rash, muhrlash , manzilini ko'rsatish, vazni va o'lchamlarining me'yorlari, yetkazib berish jadvali va muddatlari, maxsus aloqa xizmatlari tariflari va boshqalar) haqidagi axborotni taqdim etish;

jo'natmalarning ishslashda, saqlashda, tashishda va topshirishda butligini ta'minlash va lozim bo'lgan ehtiyyot choralarini ko'rish;

"Buyurtmachi" tomonidan qilingan shikoyat yoki da'volarni qonun hujjatlarida va maxsus aloqani tashkil qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqish.

2.2. "Bajaruvchi"ning huquqlari;

yetkazib berish uchun qabul qilinayotgan jo'natmalarning chegaraviy vaznini, o'lchamlarini, sonini, jo'natmalarni yetkazib berish ketma-ketligi va jadvalini belgilash;

jo'natmalarni yetkazib berish uchun eng maqbul mashrutlarni va transport turini belgilash;

"Buyurtmachi" mazkur Shartnomaning 3.4-bandini bajarmagan taqdirda, "Buyurtmachi" yozma shaklda xabar qilingan kundan boshlab 15 kun o'tgandan keyin jo'natmalarni qabul qilishni to'htatib qo'yish;

agar jo'natmalarni rasmiylashtirishda ularning o'rashga,vazniga, o'lchamlariga va manzilini ko'rsatishga qo'yilgan talablarni "Buyurtmachi" buzgan bo'lsa, bunday jo'natmalarni, shuningdek ilova hujjatlari noto'g'ri rasmiylashtirilgan jo'natmalarni "Buyurtmachi"dan qabul qilishni rad qilish;

agar qabul qilingan jo'natmalarning manzili haqidagi ma'lumotlar noto'g'ri ko'rsatilganligi yoki to'liq bo'limganligi, nomiga jo'natmalar kelgan kundan boshlab 15 kun davomida adresatni yo'qligi, adresat jo'natmalarni qabul qilishdan bosh tortganligi va boshqa "Bajaruvchi"ga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra "Bajaruvchi" jo'natmalarni yetkazib berolmagan (topshirolmagan) bo'lsa, ularni "Buyurtmachi"ga qaytarib berish;

53, 10, 13, 132 - 00001

maxsus aloqa xizmatlari uchun tariflarni mustaqil ravishda o'zgartirish. Yangi tariflar bildirish xatiga ilova qilinib, amalga kiritilgan kundan 10 kun kechiktirmsandan "Buyurtmachi"ga yuboriladi.

### 2.3. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

jo'natmalarni o'rashga, vazniga, o'lchamlariga, muhrlashga, manzilini ko'rsatishga va ilova hujjalari rasmiylashtirishga oid "Bajaruvchi"ning talablariga rioya qilish;

"Bajaruvchi"ning feld'ege kelgan paytida jo'natmalarni topshirishga taxt qilib qo'yish (belgilangan tartibda jo'natmalarni o'rash va muhrlash, manzilini aniq ko'rsatish, ilova xujjalari tayyorlab qo'yish);

bojxona va boshqa rasmiyatchiliklarga ryoq qilishni talab qiladigan jo'natmalarining zarur bo'lган ilova va ruxsat berish hususiyatlari boshqa xujjalari tayyorlash;

o'ziga hos hususiyatga ega, saqlash, ishlash va tashish uchun alohida sharoit talab qiladigan jo'natmalarni, quroq va o'qdori, quroqning qismlari joylangan, aviatsiya transportida tashilishi ta'qilangan, shuningdek yirik gaybaritli (har uch o'ichovi 45 santimetrdan katta) va og'ir (30 kilogrammdan ortiq) jo'natmalarni faqat "Bajaruvchi" bilan kelishilgandan keyin topshirish;

o'zining nomlanishi, manzili va bank rekvizitlari o'zgarganligi haqida "Bajaruvchi"ga axborot berish.

### 2.4."Buyurtmachi"ning huquqlari:

"Bajaruvchi"ning faoliyatiga aralashmagan holda, mazkur Shartnomaga doirasidagi topshiriqlarni "Bajaruvchi" tomonidan bajarib borilishi haqida axborotni talab va nazorat qilish hamda rasmiy ravishda so'rash.

## 3.HISOB-KITOB TARTIBI.

3.1. Mazkur Shartnomaning 20~~22~~ yil " " dan 20~~22~~ yil "31" 12 gacha bo'lган davrda umumiy summasi (15% QQS ni hisobga olgan holda)  
2 500 000 (чимин манзилон  
демай роғ саларни) so'mni tashkil etadi.  
(summasi raqam fa'so'z bilan)

Yakuniy to'lov amalda ko'rsatilgan xizmatlar uchun amalga oshiriladi.

3.2."Buyurtmachi" xizmatlar xaqini mazkur Shartnomaga ilova qilingan maxsus aloqa xizmatlari uchun tariflarga muvofiq to'laydi.

3.3."Buyurtmachi" mazkur Shartnomaga imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida Shartnomaning umumiy bahosining 30 foizi miqdorida oldindan xaq to'laydi.

3.4."Buyurtmachi" har oyda "Bajaruvchi"ning xizmatlari uchun to'lovni hisobvaraq-fakturani olgan kundan boshlab 5 kun ichida to'laydi.

3.5."Buyurtmachi"ning binosida jo'natmalarni qabul qilish uchun avtomashina bilan feld'ege yuborilganiga xaq "Buyurtmachi" topshirgan jo'natmalarining soni yoki mavjud bo'lishiga qaramasdan, har bir borib kelishiga olinadi.

3.6. Zaruriyatga qarab yoki tomonlardan birining talabiga ko'ra mazkur Shartnomaga bo'yicha qilingan hisob-kitoblarni solishtirib chiqish amalga oshiriladi.

## 4.TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

4.1.Xususiy shaxslar nomiga yo'llangan,o'zga korxonalarining muhri (plombasi) bilan muhrlangan (plombalangan),shuningdek zaharlar, o'yvchi kislota va ishqorlar, portlovchi, tez alangalanuvchi, zaharovchi va radioaktiv moddalar, bakteriologik preparatlar, giyohvand moddalar va "Bajaruvchi" yoki uchinchi shaxs ishchilarining hayoti va sog'lig'ini xavf ostiga qo'yuvchi, mulkiga zarar yetkazishi mumkin bo'lган boshqa xavfli moddalar jo'natmalarni maxsus aloqa orqali yuborish man qilinadi.

4.2. Tomonlardan biri Shartnomaga majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda , bu tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararni to'laydi va qonun xujjalariha hamda mazkur Shartnomaga muvofiq boshqacha tarzda javobgar bo'ladi.

4.3. Yetkazib berish uchun qabul qilingan jo'natmalarni yo'qotish, shikastlash, yetkazib bermaslik (topshirmaslik), joylanmaning kam chiqishi xollari "Bajaruvchi"ning aybi bilan bo'lganda "Bajaruvchi" qonun xujjaligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

4.4. Agar jo'natmalarni qobig'ining va muhrlarining (plombalarining) butunligi buzilmagan bo'lsa, "Buyurtmachi" jo'natmalarni tayyorlashda joylanmaning o'ziga hos hususiyatlarini inobatga olmasdan joylagan bo'lsa, joylanma shikastlangani yoki kam chiqqani uchun "Bajaruvchi" javobgar bo'lmaydi.

4.5. Xizmatlar o'z vaqtida ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi o'z vaqtida ko'rsatilmagan xizmatlarni qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

4.6. Maxsus aloqa orqali yuborish man qilingan (mazkur Shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan) jo'natmalarni yetkazib berish uchun "Buyurtmachi" topshirgani aniqlansa, "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ni yoki uchinchi shaxslarning oldida qonun xujjaligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

4.7. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida xaq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchiga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasini 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

4.8. Penya to'lash Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan tomonni Shartnomanini bajarishdan va yetkazilgan zararni to'lashdan ozod qilmaydi.

4.9. Agar yengib bo'lmas kuch sharoiti (fors-major) yuzaga kelganligi, masalan hukumat qarorlari, tabiiy ofat, epidemiya, har qanaqa tusdag'i harbiy operatsiyalar va shu kabilar mazkur Shartnoma majburiyatlari bajarilmagan taqdirda, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadilar.

## 5. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

5.1. Mazkur shartnomaning bajarilishida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar imkon qadar tomonlarni muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

5.2. Agar muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal etish imkon bo'lmasa, tomonlar qonun hujjalarda ko'zda tutilgan kelishmovchiliklarni sudgacha hal etish tartibi choralarни ko'rishgandan so'ng, ularni hal etish uchun Toshkent shahar tumanlararo Iqtisodiy sudiga oshiradilar.

## 6. OSHKOR QILINMAYDIGAN MA'LUMOTLAR.

6.1. Tomonlar mazkur shartnoma talablarini ijrosini bajarish davrida ularga ma'lum bo'lgan oshkor qilinmaydigan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar. Oshkor qilinmaydigan ma'lumotlar sifatida mazkur shartnomada oshkor qilinishi tomonlar uchun zarar yetkazishi yoki tomonlar obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tushuniladi.

6.2. Tomonlar o'z zimmalariga mazkur shartnomaning 6.1. punktida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni o'zlarining vakolatli shaxslaridan hamda tomonlarning har birining nomidan ma'lumotlarni jo'natish va qabul qilib olish uchun javobgar bo'lgan shaxslaridan tashqari uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.

6.3. Mazkur shartnomaning 6.1 bandida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar faqatgina O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan holatlarda oshkor qilinishi mumkin.

6.4. Mazkur shartnoma bekor qilingan holatda, tomonlar shartnomaning 6.1 bandida ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik va ushbu ma'lumotlarni o'zlarining va/yoki uchinchi shaxsnинг manfaati uchun mazkur shartnoma bekor qilingan sanadan 1 yil muddat davomida foydalanmaslik majburiyatini oladilar.

## **7. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH QOIDALARI.**

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish doirasida tomonlar amaldagi qonunchilik shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar.

Bunda ular va ularning hodimlari, filiallari, benefitsiarlari va ushbu shartnomani bajarishda ishtirok etadigan agentlar biznes sheriklari, vositachilar, pudratchilar pora berish yoki olish, tijorat pora olish sifatidagi harakatlarni (harakatsizligi) amalga oshirmsasliklarini ta'minlash, pora berishda vositachilik, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hodimining yoki boshqa shaxslarning pora olishi va ushbu shartnoma va korrupsiyaga qarshi kurashish va jinoyatchilikdan olingen daromadlarni legallashtirish (yuvish) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi qo'llaniladigan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi.

7.2. Tomonlar bevosita yoki bilvosita, shahsan yoki uchinchi shahslar orqali takliflar, va'dalar, berish, tovlamachilik, so'rovlari, pul va boshqa qimmatbaho buyumlar, mulk, mulk huquqi va boshka moddiy yoki moddiy bo'Imagan foydalarni olish va olishga rozilik berish hamda asossiz ustunlikka erishish yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish, shu jumladan tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va oshkoraliqi tamoyillariga mos kelmaydigan maqsadlarga erishish xamda xar qanday shahslardan ularga ta'sir o'tkazishdan bosh tortadilar. Tomonlar qayd etilgan harakatlarning oldini olish choralarini ko'rishni kafolatlaydilar.

7.3. Mazkur shartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini bajarish doirasida, ushbu shartnomani tomonlar qonun buzilishida gumonlarning paydo bo'lishi yoki tomonlar, ularning xodimlari, affilangan shahslari, benefitsiarlari va ular tomonidan jalb qilingan shaxslar tomonidan buzilish ehtimoli borligi to'g'risida bir-birlarini yozma ravishda (shu jumladan korporativ elektron pochtadan foydalangan holda) ochiq va darhol xabardor kilishni o'z zimmalariga olishadi.

shunindek, agar tomonlardan biri amaldagi qonun yoki ushbu shartnomaning har qanday korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini boshqa tomon, uning xodimlari, affilangan shahslari, benefitsiarlari yoki ular tomonidan jalb qilingan shaxslar tomonidan buzilganligi to'g'risida asosli shubha tug'dirsa, ushbu shartnomani amalga oshirish doirasida ushbu tomon unga so'rov olingen kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida sharhlar va buzilish faktini rad qiluvchi yoki tasdiqlovchi ma'lumotlar, hujjatlar taqdim etish talabi bilan yozma ravishda so'rov yuborishga haqlidir.

7.4. Mazkur bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilishni talab qilgan tomon keyingi tomonidan yetkazilgan zararni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, shu bilan birga ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish tufayli zararni qoplashni talab qilishga xaqli emas.

## **8.SHARTNOMANING AMAL QILISHI.**

8.1. Mazkur Shartnoma 2019 yil "20" 01 dan kuchga kiradi va 2022 yil "31" 12 gacha amal qiladi.

8.2. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

## **9.YAKUNIY QOIDALAR.**

9.1. Mazkur Shartnoma tomonlarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin. Shartnomani bekor qilish bildirish xatini yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9.2. Mazkur Shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan va tomonlarning tegishli vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur Shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuzildi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

## 10. TOMONLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI

“Bajaruvchi”: DUK “Respublika maxsus aloqa bog’lamasi”

10000, Toshkent shahar, Ya. G’ulomov ko’chasi, 2

H/r: 20210000100155276001 AKB Aloqa bank

MFO 00401, STIR 201440547, IFUT 53200

Tel: 71)239-85-09, 71)239-19-49 (navbatchi)

E-mail:info@rmab.uz

To’lovchining ro’yxatdan o’tish kodi 326020005424


“Buyurtmachi”: Ўз РРД його филиалси икетчегичи  
100214. Таджикистон ш. Гуломбек, Гарм. Чирчекли 14. Кодесон 1  
ИИИ: 200540390, ОКНУ: 95710, ОКТД: 7.2110, ИЛК: 40011086026269701510004300  
ХХХМ қарниззозе банк. Р/с: 23401000300100001010  
ИИИ: 201922919 М920: 00014

## 11. TOMONLARNING IMZO VA MUHRLARI.

“Bajaruvchi”



“Buyurtmachi”



Тоғизор ғуломбек үйи